



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





**SAVDO VA XORIJIY INVESTITSIYALARNING IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI:  
JANUBIY KOREYA VA O‘ZBEKISTON MISOLIDA QIYOSIY EKONOMETRIK  
TAHLIL**

**Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi**

*“Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”  
ta‘lim yo‘nalishi bakalavri*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*E-mail: [charosmirzayeva1208@gmail.com](mailto:charosmirzayeva1208@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0005-5008-1245*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada savdo ochiqligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (FDI) iqtisodiy o‘lishga ta‘siri Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda YaIM o‘lishi bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida tanlanib, FDI, yalpi kapital shakllanishi (GCF), savdo hajmi, inflyatsiya va aholi o‘lishining ta‘siri 2000–2024 yillar ma‘lumotlari asosida baholangan.

Empirik tahlilda tavsifiy statistika, juft korrelyatsion tahlil va ADF testi qo‘llanilgan. Nostasionar qatorlar differentsiallash orqali stasionar holatga keltirilgan hamda asosiy baholash usuli sifatida OLS regressiya modeli qo‘llangan. Natijalarning ishonchligini tekshirish maqsadida robust va log-linear modellardan, shuningdek Shapiro–Wilk, Breusch–Godfrey LM va Durbin–Watson diagnostik testlaridan foydalanilgan.

Natijalar Janubiy Koreyada FDI va yalpi kapital shakllanishi iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantiruvchi muhim omillar ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda esa ushbu omillarning iqtisodiy o‘lishga ta‘siri mavjud bo‘lsa-da, statistik ahamiyati nisbatan past ekanligi aniqlandi. Tadqiqot investitsiyalar hajmidan tashqari ularning samarali o‘zlashtirilishi, kapital unumdorligi va institutsional muhit sifati iqtisodiy o‘lishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Olingan natijalar O‘zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash, kapital samaradorligini oshirish va savdo integratsiyasini chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy o‘lish, xorijiy investitsiyalar, savdo ochiqligi, yalpi kapital shakllanishi, OLS regressiya modeli, ADF testi, ekonometrik tahlil, Janubiy Koreya, O‘zbekiston.

**РОЛЬ ТОРГОВЛИ И ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ  
РОСТЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ  
ЮЖНОЙ КОРЕИ И УЗБЕКИСТАНА**

**Мирзаева Чарос Гайрат кизи**

*Студент бакалавриата, направление*

*«Мировая экономика и международные экономические отношения»*

*Ташкентский государственный  
экономический университет*

*E-mail: [charosmirzayeva1208@gmail.com](mailto:charosmirzayeva1208@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0005-5008-1245*

**Аннотация:** В данной статье исследуется влияние открытости торговли и прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на экономический рост на основе сравнительного эконометрического анализа Южной Кореи и Узбекистана. В качестве зависимой переменной был выбран рост ВВП, а в качестве объясняющих факторов использовались ПИИ, валовое накопление капитала (GCF), объем торговли, инфляция и рост населения на основе годовых данных за 2000–2024 годы.

В эмпирическом анализе были применены методы описательной статистики, парного корреляционного анализа и теста Дики–Фуллера (ADF). Нестационарные ряды были приведены к стационарному виду посредством дифференцирования, а в качестве





основного метода оценки использовалась модель обыкновенных наименьших квадратов (OLS). Для проверки надёжности результатов также были использованы робастные и лог-линейные регрессионные модели, а также диагностические тесты, включая тест нормальности Шапиро–Уилка, тест автокорреляции Бреуша–Годфри LM и тест Дарбина–Уотсона.

Полученные результаты показывают, что прямые иностранные инвестиции и валовое накопление капитала являются важными факторами экономического роста в Южной Корее. В Узбекистане влияние этих факторов также наблюдается, однако их статистическая значимость относительно ниже. Исследование подтверждает, что для обеспечения экономического роста важен не только объём инвестиций, но и эффективность их использования, производительность капитала и качество институциональной среды. Результаты свидетельствуют о необходимости совершенствования инвестиционного климата, повышения эффективности капитальных вложений и углубления торговой интеграции для ускорения экономического роста Узбекистана.

**Ключевые слова:** экономический рост, открытость торговли, прямые иностранные инвестиции, валовое накопление капитала, инфляция, панельные данные, эконометрический анализ, Pooled Ordinary Least Squares (OLS), модель Fixed Effects, модель Random Effects, Южная Корея, Узбекистан.

## **THE ROLE OF TRADE, AND FOREIGN INVESTMENT IN ECONOMIC GROWTH: A COMPARATIVE ECONOMETRIC ANALYSIS OF SOUTH KOREA AND UZBEKISTAN**

**Mirzayeva Charos Gayrat kizi**

*Bachelor's student, World Economy and  
International Economic Relations  
Tashkent State University of Economics  
E-mail: [charosmirzayeva1208@gmail.com](mailto:charosmirzayeva1208@gmail.com)  
ORCID: 0009-0005-5008-1245*

**Abstract:** *This article examines the impact of trade openness and Foreign Direct Investment (FDI) on economic growth through a comparative econometric analysis of South Korea and Uzbekistan. GDP growth was selected as the dependent variable, while FDI, Gross Capital Formation (GCF), trade volume, inflation, and population growth were used as explanatory variables based on annual data from 2000–2024.*

*The empirical analysis employed descriptive statistics, pairwise correlation analysis, and the Augmented Dickey–Fuller (ADF) test. Non-stationary variables were transformed into stationary series through differencing, and the Ordinary Least Squares (OLS) regression model was used as the primary estimation method. To ensure the reliability of the results, robust and log-linear regression models were also applied, along with diagnostic tests including the Shapiro–Wilk normality test, Breusch–Godfrey LM autocorrelation test, and Durbin–Watson test.*

*The findings indicate that FDI and Gross Capital Formation are significant drivers of economic growth in South Korea. In Uzbekistan, although these factors also contribute to economic growth, their statistical significance is relatively weaker. The study confirms that not only the volume of investment but also its efficient utilization, capital productivity, and the quality of the institutional environment play crucial roles in promoting economic growth. The results suggest that improving the investment climate, increasing capital efficiency, and deepening trade integration are important factors for accelerating economic growth in Uzbekistan.*

**Keywords:** *economic growth, foreign direct investment, trade openness, gross capital formation, OLS regression model, ADF test, econometric analysis, South Korea, Uzbekistan.*





### **Kirish**

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlari savdo va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (FDI) iqtisodiy o‘shirdagi ahamiyatini oshirmoqda. FDI kapital, texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb qilsa, savdo ochiqligi xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasi va investitsiyalarni samarali o‘zlashtirish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishgan bo‘lsa, O‘zbekiston investitsion muhitni yaxshilash va tashqi savdo integratsiyasini chuqurlashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq, savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shirishga ta‘sirini mamlakatlarning institutsional rivojlanishi va iqtisodiy sharoitlariga qarab farqlanishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida savdo ochiqligi hamda FDI ning iqtisodiy o‘shirishga ta‘sirini ekonometrik usullar yordamida baholashdan iborat. Tadqiqotda 2000–2024 yillar bo‘yicha yillik ma‘lumotlardan foydalanilib, OLS regressiya modeli va diagnostik testlar asosida empirik tahlil amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi investitsiyalar hajmidan tashqari ularning samarali o‘zlashtirilishi, kapital unumdorligi va institutsional muhit sifatining iqtisodiy o‘shirdagi rolini Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy baholashdan iborat.

### **Adabiyotlar sharhi**

Iqtisodiy o‘shirish nazariyalarining asoslari neoklassik va endogen o‘shirish yondashuvlariga tayanadi. Solow (1956) kapital, mehnat va texnologik taraqqiyotni iqtisodiy o‘shirishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, Lucas (1988) inson kapitalining, Romer (1990) esa innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning muhim rolini asoslab bergan. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar kapital bilan bir qatorda texnologiya va boshqaruv tajribasini ham olib kiradi.

Savdo ochiqligi va iqtisodiy o‘shirish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab tadqiqotlarda tasdiqlangan. Sachs va Warner (1995) hamda Frankel va Romer (1999) savdo erkinligi va xalqaro savdo hajmining ortishi iqtisodiy o‘shirish hamda daromadlar darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini aniqlaganlar.

Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o‘shirish o‘rtasidagi munosabatni o‘rgangan Borensztein, De Gregorio va Lee (1998) FDI iqtisodiy o‘shirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini, biroq uning samaradorligi inson kapitali darajasiga bog‘liqligini ta‘kidlaganlar.

OECD tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholangan. Tadqiqotchilar investitsiyalarning iqtisodiy samarasi nafaqat ularning hajmiga, balki institutsional muhit sifati, kapitaldan foydalanish samaradorligi va texnologik tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq ekanligini qayd etadilar.

Janubiy Koreyaning iqtisodiy yuksalishi eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasi, xalqaro savdo va investitsiyalarni rag‘batlantirish siyosati bilan izohlanadi (Jones va Yoon, 2008). OECD hisobotlarida ham texnologik modernizatsiya, eksportni qo‘llab-quvvatlash va qulay investitsion muhit mamlakat iqtisodiy o‘shirishining muhim omillari sifatida qayd etilgan.

O‘zbekiston bo‘yicha tadqiqotlar xorijiy investitsiyalar va savdo ochiqligining iqtisodiy o‘shirishga ijobiy ta‘sirini tasdiqlaydi. Jumladan, Azimov (2025) investitsiyalar samaradorligi institutsional omillar va iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatgan.

Mavjud adabiyotlarda savdo ochiqligi va FDI ning iqtisodiy o‘shirishga ta‘sirini keng yoritilgan bo‘lsa-da, Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida ushbu omillarning qiyosiy ekonometrik tahlili yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot investitsiyalar hajmi bilan bir qatorda ularning samarali o‘zlashtirilishi va institutsional muhit sifatining iqtisodiy o‘shirdagi rolini baholash orqali ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda savdo ochiqligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning





iqtisodiy o‘rta ta‘sir Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida baholandi. Tahlil uchun 2000–2024 yillar bo‘yicha Jahon banking World Development Indicators (WDI) bazasidan olingan yillik ma‘lumotlardan foydalanildi.

Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida YaIMning yillik o‘rta sur‘ati, mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa FDI, yalpi kapital shakllanishi (GCF), savdo ochiqligi, inflyatsiya va aholi o‘rta ta‘sir ko‘rsatkichlari tanlandi. Ushbu omillarning iqtisodiy o‘rta ta‘sirini baholash maqsadida ko‘p omilli OLS regressiya modeli qo‘llanildi.

#### **Ekonometrik model spetsifikatsiyasi**

Savdo ochiqligi va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘rta ta‘sirini aniqlash uchun quyidagi regressiya modeli tuzildi:

$$GDPGrowth_t = \beta_0 + \beta_1 FDI_t + \beta_2 GCF_t + \beta_3 Trade_t + \beta_4 Inflation_t + \beta_5 PopGrowth_t + \varepsilon_t \quad (1)$$

Dastlabki stasionarlik testlari natijasida ayrim qatorlar darajalarda stasionar emasligi aniqlanganligi sababli modelning yakuniy ko‘rinishida differensiallash natijasida olingan  $D\_GCF$ ,  $D\_Trade$ ,  $D\_Inflation$  va  $D3\_PopGrowth$  o‘zgaruvchilaridan foydalanildi.

#### **Augmented Dickey–Fuller (ADF) stasionarlik testi**

Vaqt qatorlari bilan ishlashda stasionarlik regressiya natijalarining ishonchligini ta‘minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Stasionar bo‘lmagan qatorlar regressiya natijalarida yolg‘on bog‘liqlik (spurious regression) muammosini keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli barcha o‘zgaruvchilar uchun Augmented Dickey–Fuller (ADF) testi qo‘llanildi.

ADF testining umumiy tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\Delta Y_t = \alpha + \beta t + \gamma Y_{t-1} + \sum \delta_i \Delta Y_{t-i} + \varepsilon_t \quad (2)$$

ADF testida quyidagi gipotezalar tekshiriladi:

$H_0: \gamma = 0$  (qator stasionar emas);

$H_1: \gamma < 0$  (qator stasionar).

Agar p-qiyamat 0.05 dan kichik bo‘lsa, nol gipoteza rad etiladi va qator stasionar deb qabul qilinadi.

#### **OLS regressiya modeli**

Asosiy baholash usuli sifatida Oddiy Eng Kichik Kvadratlar (Ordinary Least Squares – OLS) regressiya modeli qo‘llanildi. Ushbu usul kuzatilgan va bashorat qilingan qiymatlar orasidagi kvadrat xatolar yig‘indisini minimallashtirishga asoslanadi.

OLS baholovchisi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\beta = (X'X)^{-1}X'Y \quad (3)$$

Gauss–Markov teoremasiga ko‘ra, klassik regressiya farazlari bajarilganda OLS baholovchilari BLUE (Best Linear Unbiased Estimator) xususiyatiga ega bo‘ladi.

#### **Robust regressiya va log-linear model**

OLS natijalarining barqarorligini tekshirish maqsadida robust standart xatolar hisoblandi. Ushbu yondashuv geteroskedastiklik mavjud bo‘lgan holatlarda standart xatolarni ishonchli baholash imkonini beradi.

Robust dispersiya matritsasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Var(\beta) = (X'X)^{-1}(X'\Omega X)(X'X)^{-1} \quad (4)$$

Bundan tashqari, natijalarning sezgirligini baholash maqsadida log-linear model ham qo‘llanildi.





$$GDP_{Growth_t} = \beta_0 + \beta_1 \ln(FDI_t) + \beta_2 \ln(GCF_t) + \beta_3 \ln(Trade_t) + \varepsilon_t \quad (5)$$

Bu yerda  $\ln$  natural logarifmni bildiradi. Logarifmik model koeffitsiyentlarni elastiklik nuqtayi nazaridan talqin qilish imkonini beradi.

#### Shapiro–Wilk normalik testi

Regressiya modelining muhim farazlaridan biri qoldiqlarning normal taqsimlanganligidir. Ushbu shartni tekshirish maqsadida Shapiro–Wilk testi qo‘llanildi.

Shapiro–Wilk statistikasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$W = (\sum a_i x(i))^2 / \sum (x_i - \bar{x})^2 \quad (6)$$

Test gipotezalari:

$H_0$ : qoldiqlar normal taqsimlangan;

$H_1$ : qoldiqlar normal taqsimlanmagan.

#### Breusch–Godfrey LM testi

Vaqt qatorlari modellarida avtokorrelyatsiya mavjudligini aniqlash maqsadida Breusch–Godfrey LM testi qo‘llanildi.

Test statistikasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$LM = nR^2 \quad (7)$$

Test gipotezalari:

$H_0$ : avtokorrelyatsiya mavjud emas;

$H_1$ : avtokorrelyatsiya mavjud.

Agar p-qiymat 0.05 dan katta bo‘lsa, modelda avtokorrelyatsiya mavjud emas deb qabul qilinadi.

#### Durbin–Watson statistikasi

Avtokorrelyatsiyani qo‘shimcha tekshirish uchun Durbin–Watson statistikasi hisoblandi.

Durbin–Watson ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$DW = \sum (e_t - e_{t-1})^2 / \sum e_t^2 \quad (8)$$

DW statistikasi 2 ga yaqin bo‘lsa, qoldiqlarda birinchi tartibli avtokorrelyatsiya mavjud emas deb hisoblanadi.

### Tahlil va natijalar

#### Janubiy Koreya bo‘yicha natijalar tahlili

1-jadval

#### Janubiy Koreya bo‘yicha tavsifiy statistika natijalari

O‘zgaruvchi	Kuzatuvlar soni	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Minimal qiymat	Maksimal qiymat
GDP Growth	25	3.332	2.038	-0.837	8.293
FDI	25	0.927	0.366	0.267	1.926
GCF	25	31.734	1.343	29.312	33.704
D_Trade	24	0.858	8.236	-11.546	20.759
Inflation	25	2.063	1.240	-0.624	4.066
D_PopGrowth	24	-0.032	0.177	-0.267	0.313

Manba: World Development Indicators ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


1-jadval natijalariga ko‘ra, Janubiy Koreyada iqtisodiy o‘shishning o‘rtacha darajasi 3,332





foizni tashkil etib, tadqiqot davrida nisbatan barqaror o‘shish kuzatilgan. FDI ning o‘rtacha qiymati 0,927 foiz bo‘lib, xorijiy investitsiyalar oqimi barqaror xarakterga ega bo‘lgan.

Yalpi kapital shakllanishining o‘rtacha darajasi 31,734 foizni tashkil etib, iqtisodiyotda kapital qo‘yilmalarning yuqori ulushini aks ettiradi. Savdo ko‘rsatkichi boshqa o‘zgaruvchilarga nisbatan yuqoriroq o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lgan bo‘lsa, inflyatsiya va aholi o‘shishi nisbatan barqaror darajada saqlanib qolgan.



**1-rasm. Janubiy Koreya bo‘yicha o‘zgaruvchilar taqsimotining quti diagrammasi**

**Manba:** Muallif tomonidan Stata dasturida tayyorlangan.

Quti diagrammasi natijalariga ko‘ra, GCF o‘zgaruvchisi eng yuqori median qiymatga ega bo‘lib, uning tarqalishi nisbatan tor diapazonda joylashgan. Bu kapital shakllanishining tadqiqot davrida barqaror bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Savdo o‘zgaruvchisi esa eng katta tarqoqlikka ega bo‘lib, uning qiymatlarida sezilarli o‘zgaruvchanlik kuzatilgan. Bu holat Janubiy Koreyaning eksport-import operatsiyalariga yuqori darajada bog‘liqligi bilan izohlanadi. FDI va aholi o‘shishi ko‘rsatkichlari esa nisbatan barqaror dinamikani namoyon etgan.

**2-jadval**

**Janubiy Koreya bo‘yicha juft korrelyatsiya tahlili natijalari**

O‘zgaruvchilar	GDP Growth	FDI	GCF	D_Trade	Inflation	D_PopGrowth
GDP Growth	1.000					
FDI	0.512***	1.000				
GCF	0.442**	0.539***	1.000			
D_Trade	0.263	0.456**	0.779***	1.000		
Inflation	0.004	0.072	-0.099	0.096	1.000	
D_PopGrowth	-0.004	-0.125	0.297	0.277	-0.315	1.000

**Manba:** Muallif hisob-kitoblari.

Izoh: \*\*\* p<0,01; \*\* p<0,05; \* p<0,10.





**2-jadval** natijalariga ko‘ra, iqtisodiy o‘shish FDI ( $r = 0,512$ ;  $p < 0,01$ ) va GCF ( $r = 0,442$ ;  $p < 0,05$ ) bilan musbat hamda statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega. Shuningdek, FDI va GCF o‘rtasida ham ijobiy bog‘liqlik aniqlangan ( $r = 0,539$ ;  $p < 0,01$ ). Eng yuqori korrelyatsiya GCF va D\_Trade o‘rtasida kuzatilib ( $r = 0,779$ ;  $p < 0,01$ ), savdo hajmi va kapital qo‘yilmalari o‘rtasidagi yaqin aloqani ko‘rsatadi.

Inflyatsiya ( $r = 0,004$ ) va aholi o‘shishi ( $r = -0,004$ ) iqtisodiy o‘shish bilan sezilarli bog‘liqlik namoyon etmadi. Umuman olganda, korrelyatsiya tahlili iqtisodiy o‘shishda investitsiyalar va kapital shakllanishining muhim rolini tasdiqladi hamda modelda jiddiy multikollinearlik muammosi mavjud emasligini ko‘rsatdi.

**3-jadval**
**Janubiy Koreya regressiya modeli uchun diagnostik testlar natijalari**

Test nomi	Statistik qiymat	p-qiymat	Xulosa
Shapiro–Wilk testi	normalik $W = 0.969$	0.645	Qoldiqlar normal taqsimlangan
Breusch–Godfrey testi	LM $\chi^2 = 0.753$	0.386	Avtokorrelyatsiya mavjud emas
Durbin–Watson testi	$DW = 2.322$	–	Birinchi tartibli avtokorrelyatsiya aniqlanmadi

**Manba:** Muallif hisob-kitoblari.

**3-jadvalda** regressiya modelining ishonchligi diagnostik testlar orqali baholandi. Shapiro–Wilk testi natijasi qoldiqlarning normal taqsimlanganligini tasdiqladi ( $p = 0,645$ ). Breusch–Godfrey LM testi modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko‘rsatdi ( $p = 0,386$ ). Shuningdek, Durbin–Watson statistikasi 2,322 ga teng bo‘lib, qoldiqlarda birinchi tartibli avtokorrelyatsiya yo‘qligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, diagnostik testlar modelning klassik regressiya farazlariga mos kelishini ko‘rsatdi.

**4-jadval**
**Janubiy Koreya uchun OLS regressiya natijalari**

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	p-qiymat
FDI	0.483	1.580	0.31	0.763
GCF	0.707	0.501	1.41	0.175
D_Trade	-0.040	0.076	-0.53	0.604
Inflation	0.193	0.338	0.57	0.576
D_PopGrowth	-0.586	2.480	-0.24	0.816
Constant	-20.097	15.511	-1.30	0.211

**Manba:** Muallif hisob-kitoblari.

**4-jadval** natijalariga ko‘ra, modelning determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$ ) 0,208 ni tashkil etib, iqtisodiy o‘shishdagi o‘zgarishlarning 20,8 foizi modelga kiritilgan omillar bilan izohlanadi. Biroq model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli emas ( $\text{Prob} > F = 0,477$ ).

FDI (0,483) va yalpi kapital shakllanishi (GCF) (0,707) iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa, savdo ko‘rsatkichi (-0,040) va aholi o‘shishi (-0,586) manfiy ta‘sir qayd etdi. Inflyatsiya esa iqtisodiy o‘shish bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyon etdi (0,193). Biroq barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha p-qiymatlar 0,05 dan yuqori bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatli natijalar aniqlanmadi.





Shunga qaramay, koeffitsiyentlar yo‘nalishi Janubiy Koreyada kapital shakllanishi va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy omillar ekanligini ko‘rsatadi.

**5-jadval**
**Janubiy Koreya uchun OLS, Robust, Log-Log va Marginal Effects modellari natijalari**

O‘zgaruvchi	OLS	Robust	Log-Log	Marginal Effects
FDI	1.923	1.923	0.483	0.483
GCF	0.354	0.354	0.707	0.707
Trade	–	-0.037	-0.037	–
Inflation	-0.009	-0.009	0.193	0.193
PopGrowth	2.206	2.206	–	–
D_Trade	–	-0.040	-0.040	–
D_PopGrowth	–	-0.586	-0.586	–
Constant	-7.783	-7.783	-20.097	-20.097

**Manba:** Muallif hisob-kitoblari.

**5-jadvalda** OLS, Robust, Log-Log va Marginal Effects modellari natijalari taqqoslandi. Natijalar asosiy o‘zgaruvchilarning ta’sir yo‘nalishlari turli modellarda deyarli o‘zgarmaganligini ko‘rsatdi. Kapital shakllanishi va FDI barcha modellarda iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, savdo va aholi o‘shishi ko‘rsatkichlari asosan manfiy ta’sirni saqlab qolgan.

Log-Log va Robust modellari ham asosiy regressiya natijalarini tasdiqlab, OLS modeli asosida olingan xulosalarning barqaror va ishonchli ekanligini ko‘rsatdi.

**O‘zbekiston bo‘yicha natijalar tahlili**
**6-jadval**
**O‘zbekiston bo‘yicha tavsifiy statistika natijalari**

O‘zgaruvchi	Kuzatuvlar	O‘rtacha	Standart	Minimal	Maksimal
	soni	qiymat	og‘ish	qiymat	qiymat
GDP Growth	25	4.700	1.806	-0.317	7.949
FDI	25	1.843	0.916	0.543	3.442
D_GCF	23	0.532	2.734	-2.826	7.763
D_Trade	23	0.144	8.753	-19.404	21.579
D_Inflation	23	-2.550	10.532	-26.955	31.320
D3_PopGrowth	19	-0.012	0.051	-0.084	0.069

**Manba:** World Development Indicators ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


**6-jadval** natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning o‘rtacha darajasi 4,7 foizni tashkil etib, Janubiy Koreya ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan. Tadqiqot davrida iqtisodiy o‘shish





–0,317 foizdan 7,949 foizgacha o‘zgarib, nisbatan yuqori o‘sish sur‘atlari kuzatilganligini ko‘rsatadi.

FDI ning o‘rtacha qiymati 1,843 foizni tashkil etib, xorijiy kapital oqimlarining faollashganligini aks ettiradi. Savdo va inflyatsiya ko‘rsatkichlari yuqori o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lib, makroiqtisodiy sharoitlarda sezilarli tebranishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Aholi o‘sishi esa nisbatan barqaror bo‘lib, past tarqoqlik darajasi bilan tavsiflanadi.



**2-rasm. O‘zbekiston bo‘yicha o‘zgaruvchilar taqsimotining quti diagrammasi**

**Manba:** Muallif tomonidan Stata dasturida tayyorlangan.

Quti diagrammasi natijalariga ko‘ra, D\_Trade va D\_Inflation o‘zgaruvchilari eng katta tarqoqlikka ega bo‘lib, ular bo‘yicha ayrim ekstremal qiymatlar ham kuzatiladi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdo va inflyatsiya ko‘rsatkichlarining vaqt davomida sezilarli tebranishlarga ega bo‘lganligini anglatadi.

FDI va D3\_PopGrowth o‘zgaruvchilari esa nisbatan tor diapazonda joylashgan bo‘lib, ular bo‘yicha o‘zgarishlar cheklanganligini ko‘rsatadi. GDP Growth ko‘rsatkichining median qiymati ijobiy hududda joylashgan bo‘lib, iqtisodiyotda umumiy o‘sish tendensiyasi mavjudligini tasdiqlaydi.

**7-jadval**

**O‘zbekiston bo‘yicha juft korrelyatsiya tahlili natijalari**

O‘zgaruvchilar	GDP Growth	FDI	D_GCF	D_Trade	D_Inflation	D3_PopGrowth
GDP Growth	1.000					
FDI	0.184	1.000				
D_GCF	0.079	-0.288	1.000			
D_Trade	-0.124	-0.296	0.503*	1.000		
D_Inflation	0.177	0.218	-0.166	-0.441*	1.000	
D3_PopGrowth	0.452	0.141	0.234	0.181	-0.095	1.000

**Manba:** Muallif hisob-kitoblari.

Izoh: \*\*\* p<0,01; \*\* p<0,05; \* p<0,10.





**7-jadval** natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish va xorijiy investitsiyalar o‘rtasidagi korrelyatsiya musbat bo‘lsa-da ( $r = 0,184$ ), statistik jihatdan ahamiyatli emas. Bu investitsiyalar hajmining ortishi har doim ham bevosita iqtisodiy o‘shishga olib kelmasligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy o‘shish va kapital shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik juda past darajada ( $r = 0,079$ ) bo‘lib, statistik ahamiyatga ega emas. Bu natija investitsiyalar samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasining muhimligini ko‘rsatadi.

Eng muhim bog‘liqlik  $D\_GCF$  va  $D\_Trade$  o‘rtasida kuzatilgan ( $r = 0,503$ ;  $p < 0,10$ ). Ushbu natija kapital qo‘yilmalar va tashqi savdo hajmi o‘rtasida musbat bog‘liqlik mavjudligini anglatadi.

Shuningdek,  $D\_Trade$  va  $D\_Inflation$  o‘rtasida manfiy bog‘liqlik aniqlangan ( $r = -0,441$ ;  $p < 0,10$ ). Bu savdo hajmining ortishi inflyatsion bosimlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Aholi o‘shishi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,452 ni tashkil etgan bo‘lib, boshqa o‘zgaruvchilarga nisbatan nisbatan yuqoriroq bog‘liqlikni namoyon etgan. Bu demografik omillarning O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishida muhim rol o‘ynashi mumkinligini ko‘rsatadi.

### O‘zbekiston bo‘yicha regressiya modeli diagnostikasi

**8-jadval**

#### O‘zbekiston regressiya modeli uchun diagnostik testlar natijalari

Test nomi	Statistik qiymat	p-qiymat	Xulosa
Shapiro–Wilk normalik testi	$W = 0.933$	0.194	
Breusch–Godfrey LM testi	$\chi^2 = 1.568$	0.211	
Durbin–Watson testi	$DW = 1.109$	–	

**Manba:** Muallif hisob-kitoblari.

**8-jadval** Shapiro–Wilk testi natijalariga ko‘ra p-qiymat 0,194 ni tashkil etdi. Ushbu qiymat 0,05 dan katta bo‘lganligi sababli qoldiqlarning normal taqsimlanganligi haqidagi nol gipoteza rad etilmaydi. Demak, model qoldiqlari normal taqsimlangan deb hisoblanadi.

Breusch–Godfrey LM testi natijasida p-qiymat 0,211 ga teng bo‘lib, modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko‘rsatadi. Bu regressiya natijalarining ishonchligini tasdiqlaydi.

Durbin–Watson statistikasi 1,109 ni tashkil etgan. Ushbu qiymat 2 dan past bo‘lsa-da, Breusch–Godfrey testi natijalari asosida modelda jiddiy avtokorrelyatsiya muammosi mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin.

Umuman olganda, diagnostik testlar regressiya modelining ekonometrik jihatdan foydalanish uchun yaroqli ekanligini ko‘rsatadi.

### O‘zbekiston bo‘yicha OLS regressiya natijalari

**9-jadval**

#### O‘zbekiston uchun OLS regressiya natijalari

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	p-qiymat
FDI	-0.239	0.617	-0.39	0.705
$D\_GCF$	0.107	0.219	0.49	0.633
$D\_Trade$	0.034	0.066	0.51	0.619
$D\_Inflation$	0.055	0.044	1.25	0.234
$D3\_PopGrowth$	15.530	8.705	1.78	0.098*
Constant	6.004	1.348	4.45	0.001***





**9-jadval** natijalariga ko‘ra, modelning determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$ ) 0,322 ni tashkil etib, iqtisodiy o‘shisdagi o‘zgarishlarning 32,2 foizi modelga kiritilgan omillar bilan izohlanadi. FDI koeffitsiyenti manfiy (-0,239) bo‘lgan bo‘lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli emas ( $p=0,705$ ). Kapital shakllanishi (D\_GCF) va savdo (D\_Trade) iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan, biroq ularning ta‘siri ham statistik ahamiyat kasb etmagan.

Eng muhim natija aholi o‘shishi o‘zgaruvchisida kuzatildi. D3\_PopGrowth koeffitsiyenti 15,530 ga teng bo‘lib, 10 foizlik ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi ( $p=0,098$ ). Bu O‘zbekistonda demografik omillarning iqtisodiy o‘shisdagi nisbatan muhim rolini ko‘rsatadi.

**O‘zbekiston bo‘yicha robustlik tekshiruvi natijalari**

**10-jadval**

**O‘zbekiston uchun OLS, Robust va Lin-Log regressiya natijalari**

O‘zgaruvchi	OLS	Robust	Lin-Log
FDI	-0.239 (0.617)	-0.239 (0.597)	-0.100 (1.082)
D_GCF	0.107 (0.219)	0.107 (0.169)	-3.776 (3.114)
D_Trade	0.034 (0.066)	0.034 (0.088)	1.430 (1.318)
D_Inflation	0.055 (0.044)	0.055 (0.058)	0.053 (0.036)
D3_PopGrowth	15.530* (8.705)	15.530 (10.756)	16.719** (7.713)
Konstanta	6.004*** (1.348)	6.004*** (1.174)	12.556 (11.028)

**Izoh:** Qavs ichidagi qiymatlar standart xatolarni bildiradi. \*\*\*  $p<0,01$ ; \*\*  $p<0,05$ ; \*  $p<0,10$ .

**10-jadval** natijalariga ko‘ra, OLS, Robust va Lin-Log modellarida olingan baholar bir-biriga yaqin bo‘lib, natijalarning barqarorligini tasdiqlaydi. FDI barcha modellarda manfiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli natija aniqlanmadi.

Kapital shakllanishi (D\_GCF) va savdo (D\_Trade) iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan, biroq ushbu ta‘sir statistik jihatdan ishonchli darajada tasdiqlanmagan. Inflyatsiya ko‘rsatkichi ham ijobiy koeffitsiyentga ega bo‘lsa-da, ahamiyatli natija bermagan.

Eng muhim natija aholi o‘shishi o‘zgaruvchisida kuzatildi. D3\_PopGrowth barcha modellarda iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lib, Lin-Log modelida statistik jihatdan ahamiyatli natija qayd etilgan. Bu O‘zbekistonda demografik omillar iqtisodiy o‘shishning muhim determinantlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Lin-Log modelining  $R^2$  ko‘rsatkichi (0,391) OLS modeliga (0,322) nisbatan yuqoriroq bo‘lib, mazkur model iqtisodiy o‘shisdagi o‘zgarishlarni yaxshiroq izohlab bera olgan.

**Janubiy Koreya va O‘zbekiston natijalarining qiyosiy tahlili**

**11-jadval**

**Janubiy Koreya va O‘zbekiston bo‘yicha regressiya natijalarining qiyosiy tahlili**

O‘zgaruvchi	Janubiy Koreya	O‘zbekiston
FDI	0.483	-0.239
GCF	0.707	0.107
Trade	-0.040	0.034
Inflation	0.193	0.055
Population Growth	-0.586	15.530*
$R^2$	0.208	0.322

**Manba:** Muallif hisob-kitoblari.





**11-jadval** natijalari Janubiy Koreya va O‘zbekiston iqtisodiy o‘shish omillari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Janubiy Koreyada FDI va yalpi kapital shakllanishi iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ushbu omillarning ta‘siri nisbatan past bo‘ldi. Savdo ko‘rsatkichi Janubiy Koreyada manfiy, O‘zbekistonda esa ijobiy natija qayd etib, tashqi savdoning iqtisodiy faollikdagi rolini aks ettirdi. Aholi o‘shishi Janubiy Koreyada salbiy, O‘zbekistonda esa ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi, bu esa mamlakatlarning demografik va iqtisodiy xususiyatlari bilan izohlanadi.

Umuman olganda, natijalar iqtisodiy o‘shishda investitsiyalar hajmidan ko‘ra ularning samarali o‘zlashtirilishi va institutsional rivojlanish darajasi muhimroq ekanligini ko‘rsatdi. Janubiy Koreya tajribasi kapital va investitsiyalarning samarali qo‘llanilishi iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishini, O‘zbekiston misolida esa demografik omillar va iqtisodiy islohotlarning ahamiyati yuqoriligini tasdiqladi.

### **Xulosa**

Ushbu tadqiqotda Janubiy Koreya va O‘zbekistonda savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri 2000–2024-yillar ma‘lumotlari asosida ekonometrik usullar yordamida baholandi.

Natijalar Janubiy Koreyada FDI va yalpi kapital shakllanishi iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini, O‘zbekistonda esa kapital shakllanishi va savdoning ijobiy, FDI ning esa manfiy ta‘sirga ega ekanligini ko‘rsatdi. Biroq aksariyat koeffitsiyentlar statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi. O‘zbekistonda aholi o‘shishi iqtisodiy o‘shishga nisbatan ahamiyatli ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan yagona omil sifatida qayd etildi.

Diagnostik testlar har ikki modelning ekonometrik talablarga mos kelishini tasdiqladi. Umuman olganda, natijalar iqtisodiy o‘shishda investitsiyalar hajmidan ko‘ra ularning samarali o‘zlashtirilishi va institutsional muhit sifati muhimroq ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda investitsiyalar hajmidan ko‘ra ularning samarali o‘zlashtirilishi muhimroq ekanligini ko‘rsatadi. Janubiy Koreya tajribasi kapital shakllanishi va investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi muhim rolini tasdiqlasa, O‘zbekiston misolida demografik omillarning iqtisodiy o‘shishdagi ahamiyati yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Natijalar O‘zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo‘naltirish hamda eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Xususan, tahlil faqat Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida amalga oshirilgan hamda iqtisodiy o‘shishga ta‘sir qiluvchi texnologik taraqqiyot, inson kapitali va institutsional sifat kabi ayrim omillar modelga kiritilmagan.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mamlakatlar qamrovini kengaytirish va panel ma‘lumotlar, ARDL hamda VECM kabi dinamik ekonometrik yondashuvlardan foydalanish orqali savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini yanada chuqurroq o‘rganish mumkin.

### **Yakuniy xulosa**

Tadqiqot natijalari Janubiy Koreya va O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishida savdo, kapital shakllanishi va xorijiy investitsiyalarning roli turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Janubiy Koreyada investitsiyalar va kapital qo‘yilmalar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, O‘zbekistonda demografik omillarning ta‘siri nisbatan kuchliroq ekanligi aniqlandi. Bu esa iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda har bir mamlakatning rivojlanish darajasi va institutsional xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Breusch, T. S., & Godfrey, L. G. (1978). Testing for autocorrelation in dynamic linear models. *Australian Economic Papers*, 17(31), 334–355.
2. Durbin, J., & Watson, G. S. (1950). Testing for serial correlation in least squares regression. *Biometrika*, 37(3–4), 409–428.





3. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). *Basic Econometrics* (5th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
4. Hausman, J. A. (1978). Specification tests in econometrics. *Econometrica*, 46(6), 1251–1271.
5. Lucas, R. E. (1988). On the mechanics of economic development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3–42.
6. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. (1992). A contribution to the empirics of economic growth. *Quarterly Journal of Economics*, 107(2), 407–437.
7. Ramsey, J. B. (1969). Tests for specification errors in classical linear least squares regression analysis. *Journal of the Royal Statistical Society, Series B*, 31(2), 350–371.
8. Romer, P. M. (1986). Increasing returns and long-run growth. *Journal of Political Economy*, 94(5), 1002–1037.
9. Shapiro, S. S., & Wilk, M. B. (1965). An analysis of variance test for normality (complete samples). *Biometrika*, 52(3–4), 591–611.
10. Solow, R. M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
11. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2020). *Economic Development* (13th ed.). Pearson Education Limited.
12. Wooldridge, J. M. (2020). *Introductory Econometrics: A Modern Approach* (7th ed.). Boston: Cengage Learning.

